

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida 2026-yil 1-choragida
Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar
to‘g‘risida
MA’LUMOT**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida 2026-yil 1-choragida O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, Jamiyat rahbariyati tomonidan Jamiyat tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarga xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarni to‘ldirish yuzasidan tegishli telefonogrammlar yuborildi.

Bugungi kun holatiga ko‘ra jamiyat xodimlari tomonidan:

825 ta yillik deklaratsiya,

367 ta ishga qabul qilishdagi deklaratsiya,

738 ta boshqa ishga o‘tkazilgandagi deklaratsiyalar to‘ldirilgan.

Taqdim etilgan deklaratsiyalar Jamiyat maxsus bo‘linmalari tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, tahlil qilinib, tahlil natijalariga ko‘ra manfaatlar to‘qnashuvi riski aniqlangan holatlar yuzasidan Jamiyatning o‘dov-axloq komissiyasiga tegishli takliflar kiritilib, mazkur masalalar bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Shu bilan birga, Jamiyat tizimida o‘tkazilgan o‘rganishlar va tekshiruvlar natijasida 2026-yilda 3 ta mavjud manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib, ular bo‘yicha tegishli choralar ko‘rildi.

Jumladan:

-Jamiyat tizimidagi tashkilotlarda 2 ta holatda rahbar va unga bevosita bo‘ysunuvchi yaqin qarindoshi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib, tegishli qaror asosida mehnat shartnomalari bekor qilindi;

– 1 ta holatda xodimning bir vaqtning o‘zida o‘zaro bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlarda rahbar lavozimida faoliyat yuritishi aniqlanib, mazkur xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi.